SIRDARYO VILOYATINIG JOZIBADORLIK SALOHIYATI

M.To‘rabekova
GulDU “Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisii

Annotatsiya. Jannatmakon Vatanimizning har bir kenti va viloyatining o‘ziga xos salohiyatlari, jozibasi bor. Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatining o‘ziga xos jozibasi va uning jozibadorlik salohiyati haqida fikr yuritiladi. Viloyatning sersuvligi, aholisi, jo‘g‘rofik joylashuvi va timsollari: baliqlari va qovunlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: jannatmakon, vatan, joziba, jozibadorlik, Sirdaryo viloyati, salohiyat, sersuvlik, qovunlar, baliqlar.

Sirdaryo - cho‘l va suv yonma-yon uchrashgan, yashayotgan bir makon. Cho‘l hayot deyarli yo‘q maskan. Mirzacho‘l esa cho‘llarni ulkani, bepayon cho‘l, biydek cho‘l demakdir. Ularning birini ikkinchisi bilan bog‘laydigan insonlar cho‘lquvarlardir. Cho‘lquvar cho‘lni mehnati va suv bilan quvadi hamda uni gulistonga aylantiradi. U cho‘lga suv chiqarib, zaminning nimalarga qodirligini, uning Ona zamin ekanligini va jozibasini ro‘yobga chiqaradi. Shu erda Ona Sirdaryoning jozibasi namoyon bo‘la boshlaydi.

Sirdaryo viloyatiga umumiy bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda bir necha jozibadorlik salohiyatlari bor ekanligini ko‘ramiz.

Birinchidan, Sirdaryo o‘z nomi bilan sersuv o‘lkadir.

Cho‘lga suv chiqarish orzusi bu yo‘lda jasorat ko‘rsatgan Farhod afsonasi qadim-qadim zamonlardan bizga etib kelgan. O‘rta Osiyoda yashovchi har bir odam Farhod va Shirin to‘g‘risidagi afsonani biladi. Malika Shirin Mirzacho‘lning zog‘ uchmas bo‘shliqlarini suvga qondirgan kishiga turmushga chiqishni va’da qiladi. Muhabbat Farhodga bu shartni bajarishda va qoyalar orasidan suvga yo‘l ochishda yordam beradi. Xalq qaqragan erni qutqarish va suvga qondirishdek jasorat to‘g‘risida afsonalar to‘qigan.

“Suv - hayot, suv - umid, suv - mo‘’jiza, suv - tiriklik. Odam dunyoga kelganida va dunyodan ketganida shu suvda yuviladi. Suv tufayli shodlik bor, qo‘shiq bor, non bor, bog‘ - rog‘ bor” [6] – deb yozadi shoir Hamroqul Rizo.

Ikkinchidan, mehnatkash va tanti xalqi, aholisi.

Sirdaryo viloyatida yashaydigan xalq ko‘pni ko‘rgan, og‘ir sinovlarda toblangan, mehnatkash, matonatli xalqdir. Bunday odamlar bilan har qanday mashaqqatni engib o‘tish, yangi-yangi marralarni qo‘lga kiritish, yanada ulug‘vor ishlarni amalga oshirish mumkin [3: 140].

Bugungi kunda Sirdaryo cho‘lquvarlarning baxtli avlodlari yashayotgan bir maskan, gulistonga aylangan o‘lkadir. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga va taraqqiyotini ko‘tarishga bel bog‘lagan barkamol avlodlar istiqomat qilayotgan o‘lka, jannatmakon O‘zbekistonimizning go‘zal va obod go‘shalaridan biridir.

Mirzacho‘lning bugungi kun gulistoniga aylantirishda sirdaryolik mehnatkashlarning, shoir tili bilan aytganda “Sirdaryoliklar”ning alohida o‘rni va xizmati bor. Bu haqida “Sirdaryoda chinorlari” kitobida 60 nafarga yaqin saxovatli sir zaminning chinorlari, mehnatkashlari faoliyati yoritib berilgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov yozganlaridek: “Sirdaryo xalqi azaldan qiyinchiliklarni sabot va matonat bilan engib kelgan mehnatkash, sofdil, bag‘rikeng xalq. Men Mirzacho‘l elining izlanuvchanlik va tashabbuskorlik fazilatlariga, mehnat va hayot tajribasiga ishonaman.

Bu xalq bir ishga bel bog‘lab kirishsa, albatta oxiriga etkazadi. Faqat uning ishonchini qozonish, ko‘ngliga yo‘l topish, ezgu maqsadlarga safarbar eta bilish lozim. Menda hech qanday shubha yo‘q: ko‘pni ko‘rgan, o‘ta og‘ir va murakkab sinovlarda toblanib, bu sinovlardan sharaf bilan chiqqan viloyat ahli o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyat va fazilatlariga suyanib, bir yoqadan bosh chiqarib, Sirdaryoning shuhrati va obro‘-e’tiborini tiklash borasida o‘zini ayamay mehnat qiladi” [6: 8-9].

Uchinchidan, jo‘g‘rofik joylashuvi.

Sirdaryo viloyati Sirdaryoning o‘rta oqimi chap qirg‘og‘ini egallagan. Maydoni - 4,3 ming kv. km., aholisi - 950 ming kishi (2024). Viloyat hududi geografik salohiyatdan janubdan shimoli-g‘arbga tomon pasayib boradigan tekislikdir. Uning katta qismini Mirzacho‘l egallab, sharqda Sirdaryo daryosi bilan chegaralanadi. Viloyat shimolida relef balanddigi 230 metr bo‘lsa, markazida 400-460 metr, janub va janubi-g‘arbda 600-650 metrni tashkil etadi. Ustki qatlam mezo-kaynozoy jinslari bilan qoplangan. Xovos tumanining janubiy tog‘oldi qismining landshafti konglomerat tipidagi (balanddigi 1000 m va undan yuqori bo‘lgan) va Turkiston tog‘ tizmalaridan kelayotgan lyoss adirlaridan iboratdir. Tekislik qismi, asosan allyuvial qatlamlar bilan qoplangan.

Tog‘, tog‘ oldi, past tekislik va cho‘l zonalarining qo‘shilib ketishi viloyat hududining o‘ziga xosligini tashkil etadi. Aynan ushbu holat bu erda dehqonchilik, chorvachilik va tog‘-kon hunarmandchiligini o‘z ichiga olgan iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlagan.

Viloyat Mirzacho‘lning o‘zlashtirilgan hududlarini o‘z ichiga oladi. Uning hududi shimol va shimoli-sharqqa tomon pasayib borgan keng tekislik bo‘lib, shimoldan Qozog‘iston va janubi-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan, shimoli-sharq va sharqdan Toshkent viloyati bilan, g‘arb, janubi-g‘arb va janubdan Jizzax viloyati bilan chegaralangan.

Mirzacho‘l iqlimi xususiyatiga ko‘ra subtropik mintaqaning kontinental tipiga to‘g‘ri keladi. Atmosfera yog‘inlarining yillik miqdori 202-425 mm ni tashkil qiladi. Yog‘inning asosiy qismi bahor va qish oylariga to‘g‘ri keladi. Qolgan vaqt quruq bo‘lib, yog‘ingarchilik deyarli bo‘lmaydi. Mavjud atmosfera yog‘inlari ham bir tekisda taqsimlanmagan, hududning janubiy qismlarida 312-425 mm, shimoliy qismlarlarida 206-300 mm miqdorida tushadi.

Sirdaryo viloyati tabiiy geografik holati ko‘ra boshqa viloyatlardan katta farq qiladi-viloyat xududida boshdan-oyoq tekis cho‘l tabiati hukmron, binobarin tog‘u toshlar yuq, suv ob’ektlari kam.

Sirdaryo viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, qulay geografik pozitsiyasi, agrosanoat salohiyati va yirik energetika quvvatlari bilan ajralib turadi. Viloyatning poytaxt Toshkent shahriga yaqinligi, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi bilan bevosita chegaradoshligi unga muhim logistik koridor vazifasini yuklaydi. Bu omillar viloyatga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. So‘nggi yillarda viloyatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli investitsion loyihalar hududning iqtisodiy o‘sishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi turmush darajasining oshishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Xullas, Sirdaryo viloyati Ona-vatanimizning kindigida joylashgan.

To‘rtinchidan, viloyat timsoli bo‘lgan: Sirdaryo, baliq va qovunlar.

Dunyodagi juda ko‘p mamlakatlarda ramzlar va timsollarga alohida e’tibor qaratiladi. Odatda har bir mamlakat ramzlari sifatida uning: bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, poytaxti, pul birligi e’tirof etiladi. Timsollar, mamlakatni, o‘lkani, xududni, millatni, elatni, ma’lum voqeiylikni, jamoani mazmun-mohiyatini o‘zida ifodalagan, vaqt chig‘irig‘idan o‘tgan, xalq ommasi e’tirof etgan bo‘lmog‘i lozim.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizning yangi mustaqillik ramzlari qabul qilindi. Bugungi kunda ularning har biri bizda faxr-iftixor uyg‘otuvchi omilga aylangan. Shu bilan birga yurtimizning turli go‘shalarning ham o‘z timsollari ommaviy axborot vositalari orqali berilib borilmoqda. Analogi yo‘q bir timsol sifati Sirdaryo daryosining bir parcha ko‘rinishini olish mumkin. Respublikamizda Surxondaryo va Qashqadaryo nomli daryolar nomi bilan ataluvchi viloyatlar bor. Daryo timsoli ularning birontasida qo‘llanilmagan. Ikkinchidan, daryoni timsol qilib olish, Mirzacho‘lni Mirzagulistonga aylanganidan, suv hayot manbai, qut-baraka va farovon hayot timsoli ekanligidan darak beradi. Uchinchidan, bunday timsolni faqatgina bizning viloyat qabul qilishga haqlidirki, zero viloyatimiz shu daryo nomi bilan ataladi. Bu esa unga o‘ziga xoslikni baxshida etadi.

Baliq- viloyat suv xavzalarida, kanallarida, ko‘llarida, zovurlarida 30 dan ortiq turdagi baliqlar yashaydi. Sazan, cho‘rtan, oq amur, do‘ngpeshona, jumx, usach, laqqa baliq, marinka, ilonbosh karas va boshqa baliqlar shular jumlasidandir. Qizil baliq, sudak, zog‘ora baliqlarni ovlash taqiqlangan.

Qovun-ayniqsa, tilimi tilni yoradigan Mirzacho‘l qovunini kim bilmaydi, deysiz? [6: 7].

Manbalarda Mirzacho‘l qovun navlarining 42 [4: 109] turi haqida ma’lumot beriladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, mustaqillik yillarida respublikamizda erishilgan yutuqlarga Sirdaryo viloyati ham o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda, jumladan, mintaqamizda bo‘layotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar bevosita Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan olib borayotgan to‘g‘ri va adolatli islohotlar bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz keyingi yillarida bir necha marta viloyatimizga saylovoldi uchrashuvlariga va Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi sessiyalariga tashrif buyurib, viloyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni tahlil qilgan, tegishli kamchiliklarni ko‘rsatib, istiqboldagi vazifalarni belgilab beruvchi nutq va ma’ruzalar qilgan. Bu ma’ruza va nutqlar Sirdaryo jozibasini yanada oshirishga va sirdaryoliklarni yangi taraqqiyot manzillari sari etaklaydi.

Ayni paytda barcha sirdaryoliklar Sirdaryo jozibasining namunasi ekanliklaridan faxrlanib, faraxbaxsh hayot og‘ushida turmush kechirishmoqda. Bu esa jonajon O‘zbekistonimiz va uning go‘shalaridan biri bo‘lgan Sirdaryoning jozibadorlidan va aholisining esa farovon hayotidan darakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Islom Karimovning 2004 yil 26 noyabr kuni Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqidan.

3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000.

4. Eshnazarov X., Eltoev I. Mirzaobod. -Guliston: Ziyo, 2007.

5. Rustambek Turdiev, Hamroqul Rizo. Sirdaryo chinorlari. (Cho‘lquvarlar haqida ocherklar). –Guliston: Ziyo, 2007.

Sirdaryo saxovati. To‘plam. -Guliston: Universitet, 2014.